

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 6 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 6

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 6



ТОШКЕНТ-2024

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№6 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2024-6>

Бош муҳаррир:

Тўхтасинов Илҳом

п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:

Тўхтасинов Илҳом

д.п.н., профессор (Ўзбекистон)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:

Tuhtasinov Ilhom

DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўгли

ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамад

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт

Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат

масъул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умар оглы

д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамад

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Джеймс Форт

Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Балтабаев Ҳамидулла

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Дустмухаммедов Хуршид

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат

отв. секретарь, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov

academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli

Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova

Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim

Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail

Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed

Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort

University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar

Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat

PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,


Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

1. Rashidova Manzura Bakhtiyorovna THE INFLUENCE OF CONFUCIAN TRADITIONS ON THE KOREAN LANGUAGE.....	5
2. Alisher Rustamov Abduhakimovich A SYSTEM OF EXERCISES AND TASKS FOR THE DEVELOPMENT OF WRITTEN SPEECH SKILLS OF HIGH SCHOOL STUDENTS THROUGH PEDAGOGICAL DIAGNOSTICS.....	10
3. Ziyayeva Kamola Ziyaiddinovna THE LINGUISTIC AND CULTURAL DIMENSIONS OF HUMOUR: A STUDY OF SPEECH GENRES AND THEIR ROLE IN COMMUNICATIN.....	15
4. Davlatova Xulkaroy Uktamovna, Botiova Valida Shuhrat qizi SPECIFIC ASPECTS OF SPEECH COMMUNICATION AND INTERNET COMMUNICATION.....	19
5. Jo‘raqulova Mushtariy O‘ZBEK TILI PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK TA‘MINOTI.....	24
6. Pardayeva Iroda Mamayunusovna ALISHER NAVOIY IJODIDA AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR TASVIRI.....	29
7. Aliyeva Zebo Akram qizi MIRATIVLIK KATEGORIYASI GRAMMATIK KO‘RSATKICH SIFATIDA.....	35
8. Mirzayev Shukurullo Abduqodir o‘g‘li TOPIK II 53- YOZISH SAVOL TURLARI VA YOZISH USULLARI.....	41
9. Bayonkhanova Iroda Furkatovna KOREYS TILINI O‘RGANISHDA MAQOLLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI.....	47
10. Hasanov Suhrob Shavkat ugli SYMBOLS AND ALLEGORIES IN THE PROSE OF ISAJON SULTAN.....	53
11. Улаш Нематович Бобоев МОДЕЛЬ СТРАТЕГИЙ ПЕРЕВОДА НА РУССКИЙ ЯЗЫК ШОК-ТЕЙМЕНТА В СМИ УЗБЕКИСТАНА И ФРАНЦИИ.....	60
12. Sadriddinzoda Safiya Shaxobiddinovna AMPHIBOLOGY IN ENGLISH RELIGIOUS LEXICOLOGY.....	65
13. Eshimova Sharofat Kenjaboyevna SINESTEZIYA - METAFORANING BIR TURI SIFATIDA.....	70
14. Umirzoqova Oynisa THE COMPARATIVE ANALYSIS OF THE TEMPORAL CATEGORY IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES.....	76
15. Alibekova Dilrabo Abdiraimovna COHISION OF NATURALISM, OPTIMISM AND REALISIM IN THE WORKS OF HECTOR MALOT AND THEODOR DREISER.....	83
16. Gulirukhsor Ruzikulova Gofur kizi A COMPARATIVE ANALYSIS OF FACE-RELATED IDIOMS IN ENGLISH AND UZBEK.....	88
17. Xalimova Firuza Rustamovna MATN DOIRASIDA BADIY KONSEPTNING SHAKLLANISHI.....	96
18. Xamidova Dilorom Olimjonovna LUQMON BO‘RIXONNING “JAZIRAMADAGI ODAMLAR” ROMANIDA BADIY TILNING IFODALANISHI.....	102

19. Xaydarova Nigora Tuxtasunovna AYOL VA ERKAKLARNING MUHOQOT USULLARI.....	107
20. Shamshoda Rustamova O'SMIR BOLALAR NUTQIDAGI INNOVATSIYALAR VA ULARNING IFODALANISHI.....	112
21. Karshieva Shokhista Kholikul kizi SYNTAX AND SEMANTICS OF ERGATIVE CONSTRUCTIONS.....	119
22. Musayeva Shaxlo Kudratovna QISSALARDA IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRI VOQEALARI TASVIRINING QIYOSIY TAHLILI. (Nosir Fozilov asarlari misolida).....	125
23. N.J.Sulaymanova IJOBIY BAHO PRAGMATIK MAZMUNINI IFODALOVCHI NUTQIY AKTLAR.....	131
24. Azimbayeva Nargiza Tuxtamuradovna O'ZBEK VA FORS TILLARIDA XULQ-ATVORNI IFODALOVCHI LEKSIK KONSTRUKSIYALAR TASNIFI.....	135
25. Yuldasheva Dilnoza Bekmuradovna THE ROLE OF UZBEK AND ENGLISH PHRASEOLOGY IN CROSS-CULTURAL COMMUNICATION.....	139
26. Gulruxsor Xoliyorova TERMINOLOGIK TEZAVURSLARNING LINGVISTIK XOSLANISHI.....	143
27. Alisher Rustamov Abduhakimovich THE HISTORY OF TEACHING AND LEARNING ENGLISH WRITING SKILLS IN UZBEKISTAN (POST-SOVIET STATE). PEDAGOGICAL DIAGNOSTIC APPROACH.....	149
28. Kubaeva Nafisa Alisher qizi UNLOCKING THE POWER OF IDIOMS: HOW FIGURATIVE LANGUAGE ENRICHES COMMUNICATION.....	154
29. Dilafro'z Amonova KOREYS ADABIYOTI TARIXIDA AYOLLAR IJODIYOTI.....	158
30. Obruyeva Gulchexra Xamrokulovna ATOQLI OTLARNING FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TARKIBIDA APELLATIVIZATSIYAGA UCHRASHI...164	164
31. Esanova Maftuna Bahodirovna YUNON-LOTIN TIBBIYOT ATAMALARINING TARIXI VA ULARNING ZAMONAVIY TIBBIYOTDAGI O'RNI.....	168
32. Azimova Yulduz Baxtiyor qizi AVTOBIOGRAFIK DISKURSNING UMUMIY TAVSIFI.....	173
33. Maxmudova Dilshoda Kurbonbayevna KOMPOZITSION TASHKILLANISH VA PEYZAJ MODIFIKATSIYASI.....	177



INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Pardayeva Iroda Mamayunusovna

Samarqand davlat chet tillar instituti

Qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrasida dotsenti

pardayevairoda74@gmail.com

ALISHER NAVOIY IJODIDA AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR TASVIRI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15069154>

ANNOTASIYA

Har bir davr o'zining tarixiy shaxsiyatlarini yuzaga chiqaradi va bu shaxsiyatlar mashhur tarixiy silsilalarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Shunday sulolalardan eng mashhuri, jahon mulkida qariyb besh yuz yillar hukmronlik qilgan sulola – Sohibqiron Amir Temur asos solgan temuriylar sulolasidir. Bu sulolaning vakillari Movarounnahr, Eron, Ozarbayjon, Iroq, Afg'oniston va Hindistonda 488 yil davomida (1370-1506; 1526-1858 yy.) hukm surdilar va o'sha mamlakat xalqlari tarixida muhim iz qoldirdilar. [10;25]. Bu davrda tarixda birinchi marta Movarounnahr va Xurosondagi o'zbek qabilalari bir xalq, bir millat sifatida o'zaro birlasha boshladilar. O'rta Osiyoda katta etnik guruhni tashkil etgan bu xalq Temur va temuriylarni har tomonlama suyab turgan asosiy kuch edi. Temur va uning avlodlari, avvalo, ana shu xalq nomidan ish ko'rar, o'zlarini shu xalqqa mansub deb bilar edilar. Temur va temuriylar davrida turkiy xalqlar orasida katta siyosiy va madaniy jonlanishning yuz berishi sababi ham, avvalo, shunda edi [11;77]. Ushbu maqolada Amir Temur va temuriylar sulolasining Alisher Navoiy asarlaridagi tasviri haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: tarixiy shaxs, hukmdor, o'zbek qabilalari, adolat va qudrat, harbiy o'yinlar, botirlik, ilm-ma'rifat kishilari, so'z san'atkor, siyosiy, madaniy.

Pardayeva Iroda Mamayunusovna

Samarkand State Institute of Foreign Languages

Associate Professor of the Department of Comparative Literature

pardayevairoda74@gmail.com

THE IMAGE OF AMIR TEMUR AND THE TIMURIDS IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI

ABSTRACT

Each epoch reveals its historical personalities, and these personalities cause the appearance of well-known historical cycles. The most famous of these dynasties is the Timurid dynasty, founded by Emir Timur Sahibkiran, a dynasty that ruled the world for almost five hundred years. Representatives of this dynasty lived in Transoxiana, Iran, Azerbaijan, Iraq, Afghanistan and India for 488 years (1370-1506; 1526-1858) and left a significant mark in the history of the peoples of this country. [10;25]. During this period, for the first time in history, the Uzbek tribes of Transoxiana and Khorasan began to unite among themselves as one people, one nation. These people, who formed a large ethnic group in Central Asia, were the main force that relied in every possible way on Timur

and the Timurids. Timur and his descendants, first of all, acted on behalf of this people, considering themselves to belong to this people. The reason for the great political and cultural revival of the Turkic peoples during the period of Timur and the Timurids was primarily this [11; 77]. This article will focus on the depiction of Amir Temur and the Timurid dynasty in the works of Alisher Navoi.

Keywords: historical personality, ruler, Uzbek tribes, justice and strength, war games, bravery, people of enlightenment, artist of words, political, cultural.

Пардаева Ирода Мамаюнусовна

Самаркандский государственный

институт иностранных языков

Доцент кафедры сравнительного литературоведения

pardayevairoda74@gmail.com

ИЗОБРАЖЕНИЕ АМИРА ТЕМУРА И ТИМУРИДОВ В ТВОРЧЕСТВЕ АЛИШЕРА НАВОИ

АННОТАЦИЯ

Каждая эпоха выявляет свои исторические личности, и эти личности вызывают появление известных исторических циклов. Самая известная из таких династий – династия Тимуридов, основанная эмиром Тимуром Сахибкираном, династия, правившая в мировом владении почти пятьсот лет. Представители этой династии жили в Мавераннахре, Иране, Азербайджане, Ираке, Афганистане и Индии в течение 488 лет (1370-1506; 1526-1858.) и оставили значительный след в истории народов этой страны. [11;25]. В этот период впервые в истории узбекские племена Мавераннахра и Хорасана стали объединяться между собой как один народ, одна нация. Этот народ, составлявший большую этническую группу в Средней Азии, был главной силой, всячески опиравшейся на Тимура и Тимуридов. Тимур и его потомки, прежде всего, действовали от имени этого народа, считая себя принадлежащими к этому народу. Причина большого политического и культурного возрождения тюркских народов в период Тимура и Тимуридов заключалась, прежде всего, в этом [12; 77]. В этой статье речь пойдет об изображении Амира Темура и династии Тимуридов в произведениях Алишера Навои.

Ключевые слова: историческая личность, правитель, узбекские племена, справедливость и сила, военные игры, храбрость, люди просвещения, художник слова, политический, культурный.

Amir Temur 1336 yil 9 aprelda Kesh viloyatining Xo'ja Ilg'or qishlog'ida dunyoga kelgan. Amir Temurning bolalik va o'spirinlik yillari haqida Ibn Arabshoh keltirgan ma'lumotlar diqqatga sazovordir. Ibn Arabshoh Amir Temurning Kesh yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tug'ilganligini aniq ko'rsatadi[4;35]. Fasih Xavofiyning "Mujmali Fasihiy" nomli asarida Amir Temurning otasi amir Muhammad Tarag'ayning nasl-nasabi jahongir Chingizxonga borib taqalishini aytgan. Muallif Tarag'ayning shajarasini quyidagicha bayon qiladi: amir Tarag'ay ibn Barkal ibn Ilangiz, Ilangiz Ijik ibn Qorachor no'yon ibn Suku Sijon ibn Irumchi ibn Qochuli no'yon ibn Tuminaxon ibn Boysurg'urxon ibn Alon Quva. Otasi Amir Tarag'ay barlos urug'ining ulug'laridan hamda Chig'atoy ulusining e'tiborli beklaridan hisoblangan. Uning ajdodlari Kesh viloyatida hokimlik qilishgan. Shu bois Amir Temurning otasi Amir Tarag'ay ham yilda bir marotaba Ili daryosi bo'yida xon tomonidan chaqiriladigan el-yurt beklarining qurultoyiga taklif etilar va u bunday yig'inlarda muttasil qatnashar edi. Sharafuddin Ali Yazdiyning ta'kidlashiga ko'ra, "ulamo va sulaho va muttasiylarg'a mushfiq va mehribon erdi va ularning majlisiga borur erdi..". "Jangnomai Amir Temur Kuragon"da yozilishicha, onasi Buxoro fuzalolarining eng ulug'i – sadr ul-shar'ia (shariat qonunlarini sharhlovchisi)ning qizi – Takina Moh begim bo'lgan[11;11]. Tarixshunos olim Jumaboy Rahimov o'zining "Adolat va qudrat timsoli" kitobida Temurning onasi haqida quyidagi ma'lumotlarni beradi: Takina Moh begimning otasi sadr ash-shari'a Ubaydullo al-Buxoriy din sayqali – ikkinchi Makka nomi bilan mashhur bo'lgan Buxorodagi yirik ulamolardan edi. Demak, ota-bobolari tarafidan Takina

Moh begim payg'ambarimiz Muhammad s.a.v. ga borib taqalgan. Muhammad Tarag'ay Bahodir Takina Moh begimga 1330 yillarda uylangan. Sharafuddin Ali Yazdiy ham o'zining "Zafarnoma" asarida Amir Temurning onasi haqida ozgina bo'lsa ham ma'lumot berib o'tgan. Uning yozishicha, Takina Moh begimning otasi Ubaydulloh al-Buxoriy tug'ilib voyaga etganini, islomiy axloqiy ma'rifatdan bahramand g'oyat oqila, pokiza xulq-atvorli qiz bo'lganligi ta'kidlanadi[9;25]. Amir Temur maktab yoshidayoq onasining ta'sirida islomiy ilmlarni puxta egallaganini kuzatamiz. Amir Tarag'ay Takina Moh begimdan to'ng'ich qizi Qutlug' Turkon oqo, Temurbek va uning singlisi Shirinbeka ismli farzandlarni ko'rgan. Takina Moh begim 1354 yilda vafot etadi. Lyusen Kerenning yozishicha, Amir Temurning onasidan bevaqt ajralishi uni juda erta erkaklar jamoasiga qo'shdi [6;17].

Otasi Temurga o'z zamonasining an'analariga ko'ra ot minish, ov qilish, kamondan nishonga o'q uzish, boshqa turli mashq va harbiy o'yinlarni puxta o'zlashtirish uchun unga xat-savod chiqarish hamda islom ahkomlarini o'rgatuvchi murabbiylar tayinlagan. Shu asnoda Amir Temur tulporlarni saralab ajrata oladigan mohir chavandoz va dovyurak bahodir bo'lib voyaga etadi. Asta-sekin harbiy ilmlarni puxta egallab, o'z atrofida to'plangan otliq askarlari bilan mahoratiyu etakchilik salohiyatini muntazam ravishda oshira borgan[4;36]. Temurbekdagi jasurlik, o'zini harbiy o'yinlarda xuddi yirik lashkarboshilardek tutishi, qat'iyat bilan harbiy o'yinlarni boshqarishi keyinchalik uni sarkarda darajasiga ko'tarilishiga ta'sir ko'rsatgan.

Bo'lajak jahongirni etti yoshida madrasaga o'qishga berishadi. Yosh Temur ona tili turkiydan tashqari fors tilini ham mukammal egallagan edi. Temur zamonasining buyuk faylasuf olimi Ibn Xaldun o'z asarida Amir Temur turk, arab, fors xalqlari tarixini yaxshi o'rgangan, dunyoviy va falsafiy bilimlarning murakkab jihatlarini bilgan sarkarda bo'lganligini e'tirof etadi.

Amir Temur yoshlik davridagi harbiy o'yinlarida do'stlarini guruhlariga ajratib, birini amir, birini vazir qilib tayinlaydi, o'zi hukmdor sifatida go'yo davlatni boshqargandek harakatlarni sodir etgan. Bu voqe'lik keyinchalik haqiqatga aylandi.

Amir Temur o'n besh yoshga to'lganida mohir chavandoz, mergan suvoriy darajasiga ko'tarildi.

Shaxsiy botirlik va ko'pchilikni bir maqsadga birlashtirish qobiliyatiga ega bo'lgan Amir Temur, yoshligiga qaramay, o'z qabilasi barloslar, jumladan, chig'atoy ko'chmanchi yoshlari orasida tezda shuhrat qozona boshladi. Ibn Arabshoh uning hamrohlari soni tobora osha borib, qisqa vaqt ichida uch yuz kishiga etganligini zikr qiladi. Amir Temur Movarounnahrning siyosiy maydoniga XIV asrning 50-yillari oxiri va 60-yillari boshida kirib keldi. Bu davrda Movarounnahr mo'g'ullarning istibdodi zo'ravonligi ostida nochor ahvolda edi. Chingizxon va Botuxon bosib o'tgan erlar izlari ko'kka ulanib, shaharlar va qishloqlar vayron bo'lgan, suv inshootlari esa yorib tashlangan yoki foydalanishga yaramas holatga keltirilgan edi. Kesh, Buxoro, Termiz, Badaxshon, Xo'jand, Shosh va boshqa qator viloyatlar hokimlari o'rtasida o'zaro adovat, tinimsiz urush-janjallar davom etib kelardi. Mo'g'ul xonlari o'tkazayotgan zug'umlar, mahalliy hokimlar o'rtasidagi to'xtovsiz nizolar mamlakatni mushkul ahvolga tushirib, faqat oddiy xalq ommasi ahvolini og'irlashtiribgina qolmay, balki hukmron doiradagilar uchun ham qiyin vaziyat vujudga keltirgan edi. Bu davrda siyosat maydoniga chiqqan Amir Temur Movarounnahrda mo'g'ul bosqinidan ozod bo'lib mustaqil, kuchli markazlashgan davlat tuzish kerakligini anglagan va bu yo'lda keskin kurashga bel bog'lagan. Bunday maqsadni amalga oshirishda Amir Temur ruhoniylar, harbiylar, savdogarlar va shahar hunarmandlari tabaqalariga suyanadi. Amir Temur tarqoq mamlakatni birlashtirishga kirishar ekan, kurashni ichki g'animlaridan boshlaydi. U XIV asrning 70 yillariga kelib Movarounnahrda mavjud tarqoqlikka va mo'g'ullar hokimligiga barham berib, markazlashgan, kuchli va mustaqil davlatga asos solgan. Bu tarixiy voqeada, albatta, Amir Temurning xizmati beqiyosdir.

Chig'atoy ulusida o'tkazilgan qurultoyda an'anaga ko'ra chingiziylardan Suyurg'atmishxon mamlakat hukmdori deb e'lon qilingan bo'lsa-da, markaziy hokimiyatni Amir Temurning o'zi boshqardi. Samarqand Amir Temur davlatining poytaxtiga aylantirilib, o'sha yilning yozida shahar devori va qal'asi tiklandi, saroy va qal'alar bino qilindi.

Amir Temur hokimiyat tepasiga kelgach, dastlabki vaqtlardayoq mamlakatda ro'y bergan og'ir iqtisodiy tanglikni bartaraf qilish uchun avvalo soliq tizimini tartibga soldi. Soliq yig'uvchilarni xalqqa nisbatan insof va adolatli bo'lishga, qonunga xilof ish tutmaslikka chaqirdi. Xalqni himoya

qilish qonun bilan mustahkamlangan. Amir Temur hatto zabt etilgan mamlakatlarning aholisini ham imkoni boricha qonun himoyasiga olgan. Amir Temur Movarounnahr aholisini birlashtirib, o'z davlatiga asos solgandan so'ng tez orada u qo'shni davlatlar va xalqlar ustiga yurish qilib, ularni bo'ysundirish va markazlashgan buyuk saltanat barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. 1381 yildan birin ketin Xuroson, Hirot, Eron, Astrobod viloyati, Ozarbayjonning Omul, Sori, Sultoniya va Tabriz shaharlarini bo'ysundirdi. 1395 yilda shimoliy Kavkaz, Quyi Volga viloyatlari, Astraxan shaharlarini zabt etdi. 1392-1396 yillar davomida G'arbiy Eron, Iroqi Ajam va Kavkazni egalladi. Shu hududda hukmronlik qilgan muzaffariylar va jaloiriylar sulolasining hukmronligi barham topdi.

Hindistonga qilgan yurishi natijasida vataniga katta o'lja bilan qaytdi. 1399-1404 yillardagi urush natijasida Turkiyaning katta qismini zabt etadi.

Amir Temur – buyuk davlat asoschisi bo'lib, Hindiston hamda Xitoydan Qora dengizga qadar, Sirdaryo va Orol dengizidan Fors qo'ltig'iga qadar xududni qamrab olgan markazlashgan ulkan saltanatga asos soldi. Bundan tashqari Amir Temur davlatiga Kichik Osiyo, Suriya, Misr va shimoliy g'arbda Quyi Volga, Don bo'ylari, shimoliy sharqda Balxash ko'li va Ili daryosigacha, janubiy sharqda esa Hindistongacha bo'lgan mamlakatlar bo'ysundirildi. Fasihiy Xavofiyning "Mujmali Fasihiy" asarida yozilishicha, Amir Temur 1370 yildan to umrining oxirigacha 30 martadan ko'proq harbiy yurish qilganligi ma'lum bo'ladi.

Buyuk sarkarda Amir Temurning shaxsi haqida so'z yuritganda uning siymosi, xulq-atvori va fazilatlari haqida uning zamondoshlari ko'pgina ma'lumotlarni yozib qoldirganlar. Arab tarixchisi Muhammad ibn Arabshohning, Ibn Xaldunning keltirgan ma'lumotlariga e'tibor qaratishimiz mumkin: "Temur gavdasi kelishgan, uzun bo'yli odam edi. Peshonasi ochiq, kallasi katta, ovozi jarangdor bo'lib, kuchi jasurligidan qolishmas edi. Oqish yuzini och qizil rang jilolantirib turardi. Elkalari keng, barmoqlari to'liq, qovurg'alari uzun, muskullari kuchli edi. Uzun soqol qo'yib yurardi. O'ng qo'li va o'ng oyog'i mayib, qarashlari yoqimli, o'limni pisand qilmas edi. U qariyb 80 ga kirib o'lim asnosida ham aql-zakovat va jasoratini yo'qotmagan edi"[11;37].

Sohibqiron Amir Temur serqirra murakkab shaxs hisoblanadi. U biror masalani hal etishdan oldin shu sohaning bilimdonlari, olimlari bilan maslahatlashibaniq va qat'iy qaror qabul qilgan. Sharafuddin Ali Yazdiy o'zinin "Zafarnoma" asarida yozishicha, Amir Temur matematika, tarix, adabiyot, tibbiyot, astronomiya, tilshunoslik ilmi namoyandalari bilan, diniy ulamolar bilan suhbatlar o'tkazar edi. Bu suhbatlarda saltanatga oid ishlar haqida gap borar edi.

Amir Temur saroyida ko'pgina ilm-ma'rifat kishilari hukmdorning marhamatidan bahramand bo'lishgan. Sharafuddin Ali Yazdiyning hikoya qilishicha, 1403 yili Amir Temur Boilkon shahrida olimlar kengashini chaqirib, o'zi nutq so'zlagan. Nutqida fan va dinning mashhur kishilarini davlatni boshqarishda, mamlakatda adolat o'rnatish, tartib va tinchlikni mustahkamlash, fuqaroning turmushini yaxshilash, saltanatni rivojlantirishda ko'makdosh bo'lishga chaqirgan.

Amir Temurning boshqaruv yillarida Movarounnahrning turli joylarida ko'pgina bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Bunga mamlakatdagi tinchlik-osoyishtalik imkon yaratgan bo'lsa, ikkinchidan Amir Temur zabt etgan turli mamlakatlardan Samarqandga keltirilgan mohir hunarmandlar, me'morlar, naqqoshlar qurilishga jalb qilinishi ham katta ta'sir ko'rsatdi. U Samarqandni dunyodagi eng go'zal shaharga aylantirishni maqsad qilib qo'ydi. Amir Temur o'zi bosib olgan mamlakatlardan nafaqat katta-katta o'ljalarni, shuningdek, mahalliy ustalarni ham Movarounnahrda keltiradi. Ibn Arabshoh ham, Sharafuddin Ali Yazdiy ham Amir Temur Samarqandga turli-tuman san'at ahlari - to'quvchilar, naqqoshlar, yoy yasovchilar, qirg'iydorlar, xullas, har qanday hunar ahlilarini olib kelganligini yozishgan. Amir Temurning Samarqand atrofida ko'plab bog'-rog'lar barpo qilganligi tarixda ma'lumdur. Zarafshon, Amudaryo va Sirdaryoga ko'priklar qurdirdi. Movarounnahr shaharlarida karvonsaroylar, hammomlar, maqbaralar, madrasalar, rabotlar qurdirdi.

Uning davrida Movarounnahr Xuroson bilan birlashib, yagona bir buyuk davlatning asosini tashkil etdi. Shu vaqtdan boshlab Xurosonda ham o'zbek tili, adabiyoti va madaniyatining mavqei orta bordi. Bu erdagi turkiyzabon xalqlar va ularning ziyolilari Samarqand, Buxoro, Turkiston va boshqa shaharlardagi olimlar, shoirlar va san'atkorlar bilan o'zaro juda yaqin munosabatda bo'la boshladilar.

Sharqshunos va arxeolog olim Abdulahad Muhammadjonov “Temur va temuriylar saltanati” kitobida shunday yozgan: “14-asrning 2-yarmi va 15-asr Oʻrta Osiyo xalqlari adabiyoti taraqqiyotida yangi va juda sermahsul davr boʻldi. Bu davrda adabiyot badiiy uslub jihatidan takomillashdi, yangi pogʻonaga koʻtarildi. Nasrda ham, nazmda ham koʻplab nodir badiiy va lirik asarlar yaratildi. Turkiy va forsiy tillarda ijod qiluvchi shoirlar oʻrtasida oʻzaro aloqa va hamkorlik kengaydi. Oʻzbek tarjima adabiyoti vujudga keldi. Badiiy adabiyotning oʻsishi bilan uzviy bogʻlangan holda adabiyotshunoslik ham taraqqiy etdi, bu sohaga oid ilmiy asarlar yaratildi”[7;144].

Hofizi Abroʻning yozishicha, Amir Temur turk, arab va eronliklar tarixini chuqur bilgan. Amir Temur saroyida ulamolardan Mavlono Abdujabbor Xorazmiy, Mavlono Shamsiddin Munshi, Mavlono Abdulloh Lison, Mavlono Bahruddin Ahmad, Mavlono Noʻmonuddin Xorazmiy, Xoʻja Afzal, Mavlono Alouddin Koshiy, Jalol Xokiylar xizmat qilishar edi.

Tarixchi Poyon Ravshanovning “Saylanma”sida Amir Temur va Temuriylar davridagi adabiy muhit haqida shunday deyilgan: “Amir Temur va Temuriylar davridagi adabiy hayot haqida soʻz yuritadigan boʻlsak, gapni Sohibqironning oʻzidan boshlashga toʻgʻri keladi. Tarixiy asarlarda, jumladan, “Zafarnoma”da Amir Temurga mansub bir necha bayt keltirib oʻtiladi. V.V. Bartold ham Amir Temurning oʻz saroyidan forsiyoʻy muarrixlar bilan bir qatorda turkiy (uygʻur) baxshilariga oʻrin berganligini, ularning Amir Temur tarixini sheʼriy yoʻl bilan bitganliklarini taʼkidlab oʻtadi”[11;450]. Turk tilini yuksak ilm-fan, nafis tasviriy sanat va xalqaro aloqa diplomatiya tiliga aylantirdi.

Amir Temur buyuk bunyodkor sanʼat homiysi sifatidagi faoliyatini uning avlodlari Mirzo Ulugʻbek, Boysungʻur Mirzo, Sulton Husayn Mirzo, Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylar davom ettirdi.

Amir Temur va Temuriylar davrida koʻplab shoiru adiblar ijod qilgan. Bu davrda shoirlar, ilm ahliga boʻlgan eʼtiborni Izzat Sulton shunday izohlagan: “Temur oʻz yurtida dunyoning koʻp erlaridan eng qimmatli kapital – ilm va hunar egalarini yiqqan edi. Temur avlodlari oʻz ota-bobosining shu bebaho merosi va mahalliy xalqlar isteʼdodi va mehnati zaminida Temurning xayoliga ham kelmagan madaniy taraqqiyotga erishdilar. Samarqand va Hirot shu yangi madaniyatning markazi boʻlib qoldi. Xuroson va Movarounnahrning boshqa koʻp katta-kichik shaharlariga ham shu jonsiz va “jonli boylik” tarqalib ketgan, hunar va bilim, sheʼriyat egalarining koʻpchiligi viloyatlarning bek va sultonlari saroyida oʻz ijodiy ishlarini davom ettirar edi”[5;34-35]. Alisher Navoiy ham “Muhokamat ul-lugʻatayn” asarida Amir Temur davriga kelib turkigoʻy shoirlar paydo boʻlgani haqida quyidagi maʼlumotlarni aytgan: “Mamlakat arab va sart sultonlaridan turk xonlariga oʻtganidan soʻng, Huloguxon zamonidan soʻngra Sohibqiron Temur Koʻragon zamonidan tortib farzandi Shohrux sulton zamonining oxirigacha turk tilida yozuvchi shoirlar, shu jumladan, ul hazrat (Amir Temur) ning avlodlaridan ham xushtabʼ podshohlar paydo boʻldilar.

Shoirlardan Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Atoiy, Muqimiy, Yaqiniy, Amiriy va Gadoiy kabi. Lekin ... forsiy shoirlar qarshisiga chiqa oladigan yolgʻiz mavlono Lutfiydan oʻzga kishi paydo boʻlmadi.

... Podshohlar ichidan ham sulton (Abulqosim) Boburdan boshqa hech qaysisidan sheʼriy asar yuzaga chiqmadi va varaq yuziga naqsh qilarli oʻzga narsa qolmadi”. [2; 81]

Amir Temur odamlar bilan yaqin muloqotda boʻlib, ahli ilm, ahli hunar, ahli din va ahli mehnatga umid koʻzi bilan qarab, ularga yuksak iltifotlar koʻrsatgan. Alisher Navoiyning yozishicha, Amir Temur saltanati davrida mamlakatda turkiy adabiyot keng koʻlamda rivojlangan. Amir Temurning oʻzi ham sheʼriyatga ishtiyoqi yuqori boʻlganligini Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”ning ettinchi majlisini Amir Temurning zikri bilan boshlab, shunday yozadi: “Temur kuragon... agarchi nazm aytmogga iltifot qilmaydurlar, ammo nazm-nasrni andoq xub mahal va mavqeda oʻqubdurlarkim, aningdek bir bayt oʻqugʻondin ming yaxshi bayt aytqoncha bor...” Davomida esa Amir Temurning oʻgʻli Mironshohning ichkilikka berilishiga aybdor sanalganlardan biri Xoja Abdulqodir boʻlib, u oʻzini devonalikka solib yurardi. Amir Temur Iroqqa yurish qilganida Xoja Abdulqodirni tutib keladilar. Alisher Navoiy davom ettirib, yozadi: “Chun Xoja (Abdulqodir)ning kamolotidin biri Qurʼon hifzi va qiroat ilmi edi, filhol biyik un bila Qurʼon

o'qumoq bunyod qildikim, ul hazrat (Amir Temurning) g'azabi lutfga mubaddal bo'lub, fazl va kamol ahli sori boqub, bu misrani bavaqt o'qidikim:

Abdol zi bim chang bar musaf zad". [1;168-169]

(Tarjimasi: Qalandar qo'rquvdan Qur'onga chang soldi).

Temuriylar davrida yetishgan zabardast so'z san'atkorlaridan biri bu – Alisher Navoiydir. U o'zining "Xamsa" (1483–1485), "Tarixi muluki Ajam" (1488), "Majolis un-nafois" (1490–1491), "Nasoyim ul-muhabbat" (1495–1496), "Soqiynoma", "Muhokamat ul-lug'atayn" (1499), "Munshaot" (1498–1499), "Holoti Pahlavon Muhammad" kabi o'ndan ortiq bebaho asarlarida Amir Temur shaxsi, faoliyati, fazilatlarini haqida noyob ma'lumotlar keltirganki, bunday badiiy lavhalarini yaxlit holda Navoiy "Temurnoma"si deb nomlash mumkin.

Navoiy Temuriylar davrini o'zining asarlarida ulug'lab, bu davrning buyuk shaxslari, ilmiy yutuqlari va madaniy merosiga yuksak baho bergan:

1. Navoiy avvalo temuriylarning harbiy yutuqlarini ulug'laydi. Ularning jasorati va mardligini madh etib, ularni "jahongirlar" deb ataydi. Ayniqsa, Amir Temurning harbiy yurishlarini tasvirlab, uning strategik mahorati va qo'shinni boshqarishdagi iste'dodini alohida qayd etadi.

2. Ulug' shoir o'z asarlarida temuriy hukmdorlarning ba'zi kamchiliklarini ham ochiq-oydin ko'rsatib beradi. Masalan, Shohruh Mirzoning o'g'illari o'rtasida kelib chiqqan nizolarni va bu nizolarning salbiy oqibatlarini tanqid qiladi. Shuningdek, ba'zi hukmdorlarning hashamatga berilib ketishini va xalqning og'irini yengil qilmasligini ham qoralaydi.

3. Navoiy temuriylar tarixini o'rganish va ularning ijobiy tajribasidan foydalanish muhimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, temuriylarning davlat boshqaruvi, ilm-fan va madaniyat sohasidagi yutuqlari kelajak avlodlar uchun ibrat va namuna bo'lib xizmat qilishi kerak. "Tarixi muluki Ajam" asarida Navoiy Temuriylar sulolasining shajarasini batafsil bayon qiladi va ularning har bir hukmdori davrida erishilgan yutuqlarni alohida ta'kidlaydi [3;124].

4. Shoir Amir Temurning davlatni markazlashtirish, savdo-sotiqni rivojlantirish va ilm-fanni qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarini yuqori baholaydi. Mirzo Ulug'bekning ilmiy faoliyati va Shohruh Mirzoning mamlakatni tinchlik yo'lida boshqarishdagi xizmatlarini ham alohida e'tirof etadi.

5. U "Majolis un-nafois" tazkirasida o'sha davrning buyuk olimlari, shoirlari va san'atkorlari haqida ma'lumot beradi va ularning ijodiy faoliyatini yuksak baholaydi. Navoiy asarlarida temuriylarga berilgan baholar obyektiv va xolisona. U ularning fazilatlarini ulug'lagani kabi, kamchiliklarini ham yashirmaydi. Bu esa Navoiyning buyuk adib va tarixchi sifatidagi yuksak mahoratini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. T: "Akademnashr"-2017. 81-b
2. Alisher Navoiy. "Majolis un-nafois". T: "Akademnashr"-2017.168-169.
3. Alisher Navoiy. Tarixi muluki Ajam. - T: "Akademnashr"-2017
4. Ibn Arabshoh. Sohibqiron Amir Temur tarixi.-T: INFO CAPITAL BOOKS-2024 y. 35 bet.
5. Izzat Sulton. Navoiyning qalb daftari. T: G'.G'ulom nomidagi-2010.34-35-b.
6. Lyusen Keren. Amir Temur saltanati. T: "O'zbekiston"-202017 bet
7. Muhammadjonov Abdulahad. Temur va temuriylar saltanati. T: Qomuslar Bosh tahririyati-1994.144-b.
8. Pardayeva I. On the example of the artistic and historical prose of Navoi in Turkish. - The Way of Science, 2014
8. Ravshanov Poyon. Saylanma. Ikkinchi jild. T: "Yangi asr avlodi"-2006.450-b.
9. Rahimov Jumaboy. Adolat va qudrat timsoli. T: "O'qituvchi"-2017 y. 25 bet
10. Fayziev T. Temuriylar shajarasi. T: INFO CAPITAL BOOKS-2024 y.
11. Hayitmetov A. Navoiy suhbatlari. Istiqlol davri o'zbek navoiyshunosligi. T: "TAMADDUN" nashriyoti.-2021. 77 bet.

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 6 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 6

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 6

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000